

MAKTABGACHA MAXSUS EHTIYOJGA EGA BOLALARNI O'QITISHDA PSIXOLOGIK YORDAM

*Denov tadbirkorlik pedagogika insitituti Maktabgacha ta'lim
yo`nalishi 1-bosqich talabasi Xolmatova Shaxnoza Xatamjonovna*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maxsus ehtiyojga ega bollarni o'qitish jarayonida psixologik yordamning mazmuni, ahamiyati va amaliy yo'nalishlari yoritilgan. Mulalif bolalarning psixik rivojlanishdagi o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda, psixolog tomonidan olib boriladigan diagnostik, koreksion va motivatsion ishlarning mo- hiyatini tahlil qiladi. Shuningdek, art-terapiya, sand-terapiya, logoritmik mashg'ulotlar kabi zamonaviy psixologik yordam usullari haqida s'z yuritiladi. Maqolada L. S. Luriya kabi olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda individual yondashuv va jamoaviy hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga k'ra tizimli psixolog yordam bolalarning o'ziga ishonchini oshiradi, ishtimoiy moslashuvini yengillashtiradi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.*

Kalit so`zlar; *maxsus ehtiyojli bolalar psixologik yordam koreksion ish, individual yondashuv, art trapiya, ijtimoiy moslashuv.*

Kirish. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, inson parvarlik, teng imkoniyatlar va inklyuzivlik tamoyillarida asoslanmoqda. Davlat siyosatining ustivov yo`nalishlaridan biri har bir bolaning, shu jumladan, maxsus ehtiyojga ega bolalrning sifatli ta'lim olish huququni ta'minlashdir. Prizident. Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida s'nggi yillarda maktabgacha va umumiy o`rta talim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etish, maxsus ehtiyojli bolalar uchun qulay muhit yaratish, ularning psixologik pedagogik va ijtimoiy q'llab-quvatlanish

tizimini takomilashtirish borasida muhim chora -tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Maxsus ehtiyojga ega bola-bu nafaqat jismoniy yoki aqliy nuqsonli bolgan shaxs, balki u o'ziga xos imko-niyatlarga, ijodiy salohiyatga ega Insondir. Bunday bololar uchun o'qitish jarayonida oddiy talim metodlari yetarli bo'lmasligi sababli, psixologik yordami, korreksion yondashuv va individual rivojlanish dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologning vazifasi faqatgina bolaning holatini tahlil qilish emas, balki ularning ichki dunyosini tushunish, o'ziga ishonchini mustahkamlash, emotsional barqarorligini shakllantirish hamda ishtimoiy hayotga moslashuviga ko'maklashishdan iboratdir.

Bugungi kunda jamiya maxsus ehtiyojga ega bolalarga bo'lgan munosabat asta-sekin o'zgarib, ularni "cheklangan imkoniyatli" emas, balki turli rivojlanish xususiyatlariga ega shaxslar sifatida qabul qilish tamoyili qaror topmoqda. Shuning uchun ta'lim muassasalarida psixoglarning faol ishtirokini kuchaytirish, ularning maxsus pedagog va tarbiyachilar bilan hamkorligini yolg'a qoyish, ota-onalarni psixologig-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvatlash bugungi kun talabidir.

Maxsus ehtiyojga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalasi ilimiy-psixologik jihatdan chuqur o'rganilgan bo'lib, ko'plab olimlar qimmatli ilmiy meros qoldirganlar. Ularning qarashlari bugungi kunda ham psixologik yordam tizimini shakllantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

L. S. Vygotskiyning fikricha, har bir bolaning, rivojlanishi uchun "yaqin rivojlanish zonasi"ga tayanadi. Olim shunday degan.

"Bola kattalar yoki ko'mak beruvchi shaxs yordamida bajara oladigan ishni mustaqil bajarishga, o'rgatilsa, uning haqiqiy rivojlanish darajasi yuqoriga kotariladi". Bu nazariya maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan individual yondashuvning zarurligini ko'rsatadi. Psixolog

bolaningimkoniyatlarini tög'ri baholab, unga shaxsiy rivojlanish zonasiga mos yordam berishi lozim.

S. L. Rubinshteym esa inson psihikasini faoliyat bilan Chanbarchars bog`liq holoda örganib shunday degan.

"Insonning ruhiy rivojlanishi uning faol ishtiroki, harakat va tajriba jarayonida shakillanadi".

A.R. Luriya özining neyropsixologik tadqiqotlarida miya faoliyati va inson xulq-atvori örtasidagi bog`liqlikni chuqur tahlil. gilib, shunday degan.

"Har qanday psixik jarayon - bu butun shaxs faoliyatining natijasi bölib, u turli funksiyaning tizimlarning o`zaro hamkorligi orqali amalga oshadi",

V.I. luboskiy va **R. E. Levinalarning** tadqiqotlarida esa, Boladagi nuqsonni emas, uning imkoniyatini ko`rish, o`sha imkoniyat asosida Shaxsiy o'sishga sharoit yaratish - bu psixologning asosiy vazifasidir. Shuningdek, zamonaviy xorijiy olimlar- **M. Coll. J. Piaget, E. Eriksonlar** ham bolalarning psixik rivojlanishida sotsial muhit va o`yin faoliyatining rolini yuqori baholaganlar.

E. Erikson esa inson rivojlanishini sakkiz bosqichga ajratib, har bir bosqichda ijtimoiy va hissiy göllab-quvatlashning ahamiyatini körsatgan. Uning ishonchiga erishgan" bosqichi ayniqsa maktabgacha yoshdagi maxsus ehtiyojli bolalar uchun muhim bölib, bu davrda psixologning yumshog,mehribon yondashuvi bolaning ruhiy holatini mustahkamlaydi.

Olimlar L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya, S.L.Rubinishteyn. V.I.Lubovskiylarning ilmiy qarashlari shuni ko`rsatadiki, bolaning rivojlanishidagi asosiy manba bu uning faol ishtiroki va ijtimoiy muhit bilan o`zaro ta'siridir.

Xulosa qilib aytganda maxsus ehtiyojli bolalarga psixologik yordani ko`rsatish - ularning hayot, sifati o`ziga bölgan ishonchi va ijtimoiy faolligini oshiruvchi eng muhim pedagog - psixologik vositadir. Psixolog, pedagog va Ota-onaning, birgalikdagi sayi - herakati orqati bunday bolalarda jamiyatda öz

örnini topish, mustaqil fikrlash va ijobiy hayotiy pozitsiyani shakllantirish imkoniyatini yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Özbekiston Respublikasi **Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev**- ning “ Ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni Toshkent, 2021 yil.
2. Özbekiston Respublikasining Ta'lim –to'g'risida"gi Qonun Toshkent. O'z-n 2020 y
3. Öz-n Res-si Vazirlar Mahkamasining 2021 y 13 maydagi 287- son qarori “Maxsus ta'lim muassasasida inklyuziv ta- limni joriy etish to'g'ri sida.
4. **L. S Vygotskiy**. Umumiy psixologiya asoslari Moskva: Pedagogika. 1982.
5. **S. L. Rubinshteyn**. Asosiy psixologik tushunchalar inson faoliyatining psixologik asoslari. - Mosksa: Nauka 1976.
6. **AR. Juriya**. Inson miya faoliyati va nutq jarayonlari. - Moskva Akademiya 1980